



**IQTIDORLI TALABALAR,
MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO'PLAMI**



Buxoro - 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami
(II qism)*

Buxoro 2024-yil, 15-may

Tahrir hay'ati

- O.X.Xamidov** - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
R.G'.Jumayev - Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;
T.H.Rasulov - Fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), dotsent;
D.R. Djurayev - Fizika-matematika fanlari doktori, professor;
S.Q. Qaxxorov - Pedagogika fanlari doktori, professor;
A.A. Turayev - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
S. Bo'riyev - Biologiya fanlari doktori, professor;
B.N.Navro'z-zoda - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
D.S. O'rayeva - Filologiya fanlari doktori, professor;
A.R.Hamroyev - Pedagogika fanlari doktori, (DSc) dotsent;
M.B.Ahmedova - Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;
B.E.Qilichov - BuxDU "Ozbek tilshunosligi va jurnalistikasi" kafedrası professori;
E.B.Dilmurodov - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Mas'ul muharrir:

A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i *f.-m.f.f.d.*, (PhD) dotsent

Musahhah:

Sh. Ramazonov – bosh muharrir BuxDU 2-bosqich magistranti

T.Sh.Ergashev – Magistratura bo'limi bosh mutaxassisi

D.R.Rahmatova – Magistratura bo'limi mutaxassisi

Ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'iga asosan tashkil etildi. To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

MATHCAD VA MAPLE DASTURLARI XUSUSIYATLARI VA ULARNI BOSHQA DASTURLAR BILAN INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI

M.N.Ismoilova

BuxDU, Axborot texnologiyalari fakulteti, dotsenti

G.H.Qodirova

BuxDU, 2-bosqich magistranti

g.h.qodirova@buxdu.uz

Mathcad va Maple dasturlari ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladi va o'z imkoniyatlariga ko'ra bir-birlaridan farq qiladi. Mathcad dasturi matematik va muhandislik masalalarini yechish uchun moslashganligi, matematik ifodalar, formulalar va tenglamalarni oson kiritish va tartibga solish imkonini berishi, sonli va grafikli natijalarni ko'rsatish uchun qulayligi, matematik hisoblashlar, integrallash, differensiallash, yig'ish kabi operatsiyalarni bajarish uchun qulayligi, fizika, kimyo, muhandislik, iqtisodiyot kabi sohalarda qo'llanilishi, matematikani o'rganish va o'qitishda samarali vosita hisoblanishi bilan ajralib turadi.

Maple dasturi esa matematik masalalarni yechish uchun kuchli va aniq hisoblash imkoniyatlariga egaligi, symbolik hisoblash, matematik modellashtirish, grafiklar chizish va animatsiya yaratishda keng imkoniyatlar taqdim etishi, differensiallash, integrallash, tenglamalar, matrisalar, vektorlar va boshqa matematik operatsiyalarni bajarish uchun qulayligi, matematik dasturlash, imitatsion modellashtirish, optimallashtirish kabi masalalar yechimida qo'l kelishi, matematik, fizika, kimyo, iqtisodiyot, muhandislik kabi sohalarda keng qo'llanilishi, o'qituvchilar va talabalar uchun matematik tushunish va tadqiqotlarni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanilishi kabi imkoniyatlarga ega bo'lib hisoblanadi.

Umumiy jihatdan, Mathcad aniq matematik hisoblashlar va modellashtirish, Maple esa matematik masalalarning symbolik yechimlarini topish va ilmiy tadqiqotlarda samarali ishlatiladigan dasturlar hisoblanadi. Ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish uchun o'qituvchilarning tegishli malakaga ega bo'lishi muhimdir. Mathcad va Maple dasturlarining quyidagi xususiyatlari ularni boshqa matematik dasturlardan ajratib turadi:

1. Matematik ifodalar va formulalarni oson kiritish:

- Mathcad va Maple dasturlarida matematik ifodalar, tenglamalar va formulalarni tabiiy ko'rinishda kiritish imkoni mavjud. Bu ularni boshqa dasturlar kabi kodlash yoki sintaksisga rioya qilish zaruratini yo'q qiladi.

- Bu dasturlar matematik doimiylik, o'zgaruvchilar, funksiyalar va operatorlarni aniqlash uchun qulay interfeysga ega.

2. Symbolik va sonli hisoblashlar:

- Mathcad va Maple kuchli symbolik hisoblash imkoniyatlariga ega. Ular matematik masalalarning yopiq ifodali yechimlarini topish uchun qo'llaniladi.

- Shu bilan birga, sonli hisoblashlar, integrallash, differensiallash, tenglamalar yechish kabi amallarni bajarish uchun ham qulay.

3. Grafik imkoniyatlar:

- Mathcad va Maple dasturlarida matematik funksiyalar, grafiklari va diagrammalarni oson chizish imkoniyati mavjud.

- Ular qandaydir ma'lumotlar to'plamini vizual ko'rinishda taqdim etish uchun qo'l keladi.

4. Matematik modellashtirish:

- Bu dasturlar matematik modellarni yaratish, tahlil qilish va vizuallashtirishga imkon beradi.

- Ular fizika, kimyo, muhandislik, iqtisodiyot kabi sohalardagi matematik modellar ustida ishlash uchun mo'ljallangan.

5. Dasturlash imkoniyatlari:

- Mathcad va Maple qo'shimcha dasturlashtirish tili va muhitiga ega bo'lib, ulardan murakkab algoritm va dasturlarni yaratish mumkin.

- Ushbu imkoniyatlar ularni boshqa matematik yoki umumiy maqsadli dasturlash vositalaridan ajratib turadi. Yuqoridagi xususiyatlar Mathcad va Maple dasturlarini matematik va ilmiy-texnik sohalarda keng qo'llanilishini ta'minlaydi. Mathcad va Maple dasturlarini boshqa dasturlar bilan integratsiya qilish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Matn va grafik fayllari bilan integratsiya:

- Mathcad va Maple natijalarini HTML, PDF, Excel, Word kabi fayl formatlarida eksport qilish mumkin.

- Bu fayllarda hisoblash, grafik, matematik ifodalar va matnlarni saqlash mumkin.

- Bu fayllarda saqlangan ma'lumotlarni boshqa dasturlarda oson foydalanish mumkin.

2. Vektor grafikasi bilan integratsiya:

- Mathcad va Maple grafik natijalarini SVG, EMF, WMF kabi vektor grafika formatlarida eksport qilish mumkin.

- Bu formatlar grafikani masshtablash va tahrirlash imkonini beradi.

- Vektor grafikasini boshqa ilova va dasturlarda oson foydalanish mumkin.

3. Dasturlash tillaridan foydalanish:

- Mathcad va Maple dasturlarida VBA, C++, Fortran kabi dasturlash tillarini qo'llash mumkin.

- Bu dasturlash tillari orqali Mathcad va Maple funksiyalarini boshqa ilovalar yoki dasturlar bilan integratsiya qilish mumkin.

- Hisoblash, modellashtirish va tahlil natijalarini boshqa ilovalar bilan jiplashtirish imkoniyatini beradi.

4. XML va JSON formatlaridan foydalanish:

- Mathcad va Maple dasturlarida yaratilgan hisoblash, modellashtirish va tahlil natijalarini XML yoki JSON formatlarida eksport qilish mumkin.

- Bu formatlar boshqa ilovalar bilan ma'lumotlar almashinuvini osonlashtiradi.

- Ma'lumotlarni tezkor uzatish, saqlash va qayta ishlash imkonini beradi.

5. Birlashtirilgan ish muhiti (IDE) lardan foydalanish:

- Mathcad va Maple dasturlarini boshqa IDE'lar kabi Visual Studio, Eclipse, MATLAB bilan birgalikda ishlatish mumkin.

- Bu holda ularni birlashtirilgan muhitda ishlash, ma'lumotlar va natijalarni almashish mumkin bo'ladi.

- Dasturlash, hisoblash va modellashtirish jarayonlarini birlashtirilgan holda bajarish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi usullardan foydalanish Mathcad va Maple dasturlarini boshqa ilovalar, dasturlar va muhitlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini beradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mathcad va Maple foydalanishga juda qulay dasturlar bo'lib, o'zining sodda va intuitiv interfeysi, murakkab matematik tenglamalar, integrallash, differensiallash, optimizatsiya va boshqa matematik amallarni bajarish imkonini berishi, grafik imkoniyatlari va keng qo'llanish doirasi bilan ajralib turadi. Ushbu afzalliklari sababli Mathcad va Maple dasturlari mutaxassislar tomonidan keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исмоилова М.Н., Муродова Г.Н. MAPLE математик пакет ёрдамида тенглама ва тенгсизликлар системаларини ечиш// Учёный XXI века международный научный журнал №4-3(17), 2016. С 25-27

2. Ismoilova Mahsuma Narziqulovna, Barrayeva Sevara Shoim qizi, Samiyeva Gulshan Alisher qizi THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS// International Conference BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS. September. 10 - December. 15. 2020. San Francisco, California, USA. 95-97 p

DRABLLAR – YANGI YO'NALISH SIFATIDA

Z.B.Asadova

BuxDU, 2-bosqich magistranti

z.b.asadova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada drabllar haqida so'z yuritiladi. Adabiyotda paydo bo'lgan yangi yo'nalishning tarixi, sabablari, jahon va o'zbek adabiyotida ilk namunalari, ijod qilgan ijodkorlar haqida so'z yuritiladi.

KIRISH

Dunyo adabiyotida yangi atamalar, yo'nalishlar va janrlar paydo bo'lishdan to'xtamayapti. Shu jumladan drabllarni ham hali paydo bo'lganiga ko'p bo'lmagan yo'nalish desak xat'o bo'lmaydi. Ingliz adabiyotida paydo bo'lgan bu yo'nalishning o'zbek adabiyotiga kirib kelgani va ommalashgani yaqin yillarga to'g'ri keladi. Eng qisqa hikoyalar drabllar deb ataladi. Shitob bilan o'zgarayotgan zamonda hajm o'lchovi cheklanib bormoqda. Qisqalik, aniqlik va kulminatsion yechim adabiyotdagi janrlarga ham ta'sir qilmoqda. Shu ehtiyoj asosida drabll janri adabiyotda paydo bo'ldi. Ilm-fan taraqqiyoti natijasida erishilgan yutuqlar turli jabhalar singari adabiyotda ham o'ziga xos o'zgarishlar, evrilishlar paydo qildi. Inson hayoti o'zgargani sayin uning adabiy-estetik taffakuri ham sayqallanib boradi. Adabiy-estetik fikrlash esa o'z navbatida adabiyotga ta'sir o'tkazadi. Shu ta'sir natijasida yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Drabll ham shu ta'sirning natijasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mundarija

<i>O.T.Nosirov P.K.Nekova</i>	<i>СРЕДСТВА РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА "ПРАЗДНИК" В НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗАХ РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРАХ.....4</i>
<i>H.Ш.Рустамова</i>	<i>СВОЕОБРАЗИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО ЯРУСА В ИДЕОСТИЛЕ В.М.ШУКШИНА.....8</i>
<i>M.P. Курбанова</i>	<i>КОНЦЕПТ "РОДИНА" В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Н.В ГОГОЛЯ.....11</i>
<i>O.X.Мехриддинова</i>	<i>"АКТУАЛИЗАЦИЯ КАТЕГОРИИ ТЕМПОРАЛЬНОСТИ В ИДЕОСТИЛЕ М.Ю.ЛЕРМОНТОВА".....13</i>
<i>Ю.Ж.Исомова</i>	<i>СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ).....16</i>
<i>K.Q.Sultonova</i>	<i>DIARIES AND MEMOIRS OF THE EMIR OF BUKHARA AS A HISTORICAL SOURCE.....20</i>
<i>S.T.Ibodova</i>	<i>BOSHLANG'ICH UMUMIY TA'LIM TIZIMIDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI.....23</i>
<i>S.U.Rahmonova</i>	<i>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TURG'UN O'XSHATISHLARNING XUSUSIYATLARI.....26</i>
<i>H.M.Kobilova</i>	<i>XUSUSIY MAKTABLARDA MAVJUD BOSHQARUV MODELLARINI TAHLIL QILISH.....29</i>
<i>N.X.Abdullayev</i>	<i>O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....35</i>
<i>E.R.Teshayeva</i>	<i>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BOSHLANG'ICH MATEMATIK TASAVVURLARNI MATEMATIK ERTAKLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH.....39</i>
<i>Z.M.Kobilova</i>	<i>INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING MAQSADI VA USTUVOR YO'NALISHLARI.....41</i>
<i>M.Э.Самторов</i>	<i>ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИИ В САМОКОНТРОЛЕ СПОРТСМЕНОВ.....45</i>
<i>Э.С.Эшов</i>	<i>ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДЛЯ ВСЕСТОРОННЕГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ СПОРТСМЕНА.....47</i>
<i>Sh.R.Xolliyeva</i>	<i>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI TARBIYASIDA HADIS ORQALI MA'NAVIY TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI.....51</i>
<i>O.H.Норкулов</i>	<i>ПОНЯТИЕ МИГРАЦИИ И ЕЕ РОЛЬ В ПРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЕ ЧЕЛОВЕКА.....53</i>
<i>Sh.Pardayev D.Bozorova</i>	<i>OQOVA SUVLARINI GIDROBIONTLAR YORDAMIDA TOZALASHNING SAMARADORLIGI.....60</i>
<i>V.Sh.Fayziyev</i>	<i>FIZIKADAN MA'NOLI MASALALAR TUZISH.....63</i>

<i>G.V.Zinatulina</i>	
<i>F.A.Ergasheva</i>	<i>BUXORO VOHASI PAXTA VA DALALARDA UCHROVCHI QUSHLAR SISTEMATIK ROYXATI VA UCHRASH HOLATIGA DOIR MALUMOTLAR.....66</i>
<i>N.S.Sayidova N.X.Ostonova</i>	<i>INFOGRAFIKALARDAN FOYDALANISHNING MUHIMLIGI.....69</i>
<i>Z.B.Asadova</i>	<i>INTERNET ADABIYOTI - YUTUQMI YO XATAR?.....74</i>
<i>I.U.Shadmanov U.Kamolova</i>	<i>QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI TABIIY SAQLASH VA QURITISH JARAYONIDA ISSIQLIK VA NAMLIK O'TKAZISH JARAYONLARINING IKKI O'LCHOVLI MATEMATIK MODELI.....77</i>
<i>M.M.Jo'rayeva S.Karimova</i>	<i>FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARI SHIFOBAXSH O'SIMLIK NOMLARI LUG'AT TARKIBINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....81</i>
<i>G.A.Salimova</i>	<i>G'O'ZA NAVLARI SUV ALMASHINUVINING EKOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....85</i>
<i>M.N.Ismoilova G.H.Qodirova</i>	<i>MATHCAD VA MAPLE DASTURLARI XUSUSIYATLARI VA ULARNI BOSHQA DASTURLAR BILAN INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI.....87</i>
<i>Z.B.Asadova</i>	<i>DRABLLAR – YANGI YO'NALISH SIFATIDA.....89</i>
<i>G.N.Ne'matova</i>	<i>ZOOPLANKTONLARNI YETISHTIRISH, ULAR BILAN OZIQLANTIRILGAN BALIQ CHAVOQLARINI KUZATISH.....92</i>
<i>M.R.Saidova</i>	<i>TOBE VA HOKIM A'ZOSI KASB OTLARIDAN TUZILGA SO'Z BIRIKMALARINING PRAGMATIK XUSUSIYATI.....95</i>
<i>D.Ergashova</i>	<i>II RENESANS DAVRIDAGI TARIXIY MANBALAR (NIZOMIDDIN SHOMIYNING "ZAFARNOMA" ASARI MISOLIDA).....98</i>
<i>G.H.Tolibova</i>	<i>THE MOST PRESSING PROBLEMS IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE.....100</i>
<i>M.T.Roziqova</i>	<i>BALIQCCHILIKDA SUN'IY KO'PAYTIRISH (INKUBATSIYA) ISHLARINI TO'G'RI TASHKIL QILISH ASOSLARI.....102</i>
<i>Қ.С.Саудов З.Р.Эргашева</i>	<i>МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ НЕКОТОРЫХ ПАРАМЕТРОВ ТРАНЗИСТОРОВ.....106</i>
<i>N.M.Bahriyev</i>	<i>PYTHON DASTURLASH TILI HAMDA UNING IMKONIYATLARI.....109</i>
<i>M.O.Uzakova</i>	<i>CHO'L ZONASI MADANIY LANDSHAFTLARI VA ULARNI OQILONA TASHKIL ETISH (BUXORO SHAHRI MISOLIDA).....112</i>